

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-DEKABR ,2024

CHUST TUMANIDAGI MASJIDLAR VA ULARNING NOMLANISH TARIXI

Hafiza Fayziyeva

hafizaergashaliyeva@gmail.com

NamDPI o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

1-bosqich magistaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Chust tumanida joylashgan masjidlar va ularning nomlanish tarixi haqida, shuningdek, masjidlarning joylashgan o‘rnini va mustaqillik yillarida ularda olib borilgan ko‘kalamzorlashtirish ishlari hamda bu ishlarda jonbozlik ko‘rsatgan insonlar xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: masjid, Islom dini, tariqat, mahalla, ruxsatnoma.

Annotation: This article talks about the history of mosques located in Chust district and the history of their names, as well as the location of mosques and the landscaping works carried out in them during the years of independence, as well as about the people who showed courage in these works.

Key words: mosque, Islamic religion, sect, neighborhood, permit.

Аннотация: В данной статье рассказывается о мечетях, расположенных в Чустском районе, и истории их названий, а также о расположении мечетей и работах по благоустройству, проводимых в них в годы независимости, а также о людях, проявивших мужество в эти годы работает.

Ключевые слова: мечеть, Исламская религия, секта, соседство, разрешение.

Har bir millat xalq bo‘lib shakllanar ekan, ularning asrlar davomida yuzaga kelgan dini, urfatlari va milliy marosimlari bo‘ladi. Xuddi shunday o‘zbek xalqi ham bir necha zamonalardan buyon xalq sifatida o‘z diniga ega. Hammamizga ma’lumki, arablar istilosidan so‘ng o‘zbek xalqi islom dinini qabul qilgan. Qariyb VII asrдан buyon o‘zbek xalqi islom dinini qabul qilib, diniy amallarni bajargan holda musulmon bo‘lib yashamoqda. Shuning uchun ham yurtimizda musulmonlar uchun muqaddas go‘saga aylangan masjid-u madrasalar qurilgan. Yurtimiz bo‘ylab qad rostlagan mana shunday go‘zal maskanlardan bir qanchasi Namangan viloyati Chust tumanida ham joylashgan.¹

Chust tumanida quyidagi masjidlar bor: Ko‘k to‘nli ota masjidi, Ibrohim Xalilulloh jome masjidi, Toymas jome masjidi, G‘oyib Eronlar jome masjidi, Buloqli jome masjidi, Oxunbobo jome masjidi, Oyxon To‘ra jome masjidi, Usta O‘rinboy jome masjidi, Eshonlar jome masjidi, Bاليqchi jome masjidi, Imomqulboy jome masjidi, Qosimshayx jome masjidi, Kattabog‘ jome masjidi, Said Nasimxon To‘ra jome masjidi, Eshon so‘fi bobo jome masjidi va Mavlono Lutfulloh jome masjidi.

Keling, quyidagi maqolada Chust tumanida joylashgan masjidlar va ularning nomlanish tarixi haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Ko‘plab musulmonlar shukronalik bilan ibodat qilayotgan masjidlardan biri Ibrohim Xalilulloh jome masjididir. Mazkur masjid 1953-yilda xalq hashari bilan barpo etilgan bo‘lib, u Chust tumanidagi Olmos qishlog‘ida joylashgan. Xalq tomonidan qurilgan bu masjidga “Ibrohim Xalilulloh” nomi berilgan. Masjidning bunday nomlanishi Qur’onda nomi zikr etilgan Ibrohim

¹ Islom nuri jurnal.-Toshkent: 2015.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-DEKABR ,2024

payg‘ambarga borib taqaladi. Ibrohim Xalilulloh jome masjidi istiqlol yillarda yana qaytadan o‘z maqomini tikladi. 2011-yil 8-mart kuni masjid binosi qaytadan foydalanishga topshirildi. Bugungi kunda masjid ko‘plab musulmonlar ibodat qiladigan muqaddas go‘shalardan biridir.

Namangan viloyati Chust tumani Yorqishloq qishlog‘ida joylashgan G‘oyib Eronlar jome masjidi 1993-yilda hashar yo‘li bilan qurilgan. Masjid bunday nomlanishiga sabab shuki, masjid yonida mana shunday nomdagagi ziyoratgohning borligidir. Ziyoratgohning nomlanishi esa quyidagicha tarixga ega: Safed bulonda majusiy Qoraxitoylar bosqini sodir bo‘ladi. Juma namozi o‘qilayotgan paytda ular ko‘plab musulmonlarni qatl qilishadi. 5-6ta Allohnning do‘srtlari mehrobni yorib chiqib qibla tarafga qarab qochishadi. Kofirlar ularning ortlaridan yugurishadi, imomni hozirgi Yorqishloqdagi qabr o‘rnida qamal qiladilar. Lekin imom Robbimning marhamati ila hammaning ko‘z o‘ngida g‘oyib bo‘ladi. Keyinchalik shu joyda qabr barpo etiladi. Allohnning do‘srtlari- yoronlar yoki eranlar nomi shundan kelib chiqqan va “G‘oyib Eronlar” nomi bilan masjid barpo etilgan. Mustaqillik yillarda masjidning nomi qayta tiklandi va obodonlashtirish ishlari olib borildi. Bugungi kunda namozxonlarga bu joyda barcha sharoitlar yaratilgan.

Istiqlol sharofati bilan o‘z maqomini qayta tiklagan Buloqli jome masjidi Chust tuman Shoyon qishlog‘ida joylashgan. Jome masjidida buлоqlar borligi uchun u aynan shunday nomlangan. Masjid xalq hashari yo‘li bilan 1990-yilda qurilgan.

Chust tuman Baliqchi mahallasida Baliqchi jome masjidi joylashgan. Mazkur masjid 1909-yil Ashmat xoji tomonidan barpo etilgan. Masjidning bunday nomlanishi masjid joylashgan qishloq nomiga aloqador.

Chust tuman Kamarsada mahallasida joylashgan Mavlono Lutfulloh jome masjidini tashkil etish uchun ruxsatnomasi 1986-yilning yanvarida olingan. Masjidning bunday nomlanishi Mavlono Lutfulloh rahmatullohi alayxning nomlari bilan bog‘liq. Mavlono Lutfulloh rahmatulloh Naqshbandiy tariqatining piri komili, o‘z zamonasining buyuk olimi bo‘lganlar. Tashabbuskorlarning asl maqsadi ham aynan u zotning nomlarini tiklash edi, shuning uchun ham masjidni shunday nomlaganlar.

XVIII asr oxirlarida barpo etilgan Eshonlar jome masjidi Chust tuman G‘ova qishlog‘ida joylashgan. Masjidni g‘ovalik Mavlonxo‘ja Eshon qurgan bo‘lib, keyinchalik u kishining avlodlari So‘fixo‘ja, Azizzxo‘ja, G‘iyosxon va Tursunxon eshonlar uni o‘z tasarruflariga olganlar. Masjidni qurgan va uning buzilib ketishining oldini olganlar eshon bo‘lgani uchun ham masjid aynan shu nom bilan ataladi.

Chust tuman Olmos qishlog‘i Qorakapa mahallasida Eshon so‘fi bobo jome masjidi joylashgan. Masjid qurilishi XVIII asr oxirlariga to‘g‘ri keladi. Masjid qo‘qonlik boyning moddiy yordami bilan barpo etilgan. Dastlab masjidga xofizi Qur‘on Oxun buva rahbar etib saylanganlar. Masjid urush davrida berkitilib, undan keyin esa maktab sifatida foydalanilgan. Mustaqillikdan so‘ng masjidning maqomi qayta tiklandi va namozxonlarning sevimli go‘shasiga aylandi.

Chustning Karkidon qishlog‘ida joylashgan Usta O‘rinboy jome masjidi 1993-yilda hashar yo‘li bilan qurilgan. Qurilish ishlari O‘rinboy Yoqubov jonbozlik ko‘rsatgan. Shuning uchun ham masjid aynan shu insonning nomi bilan atalgan.

1901-yilda Botirboy Xojiyorboy o‘g‘lining tashabbusi bilan boshlangan yana bir masjid Chust tumanining Olmos qishlog‘ida joylashgan Toymas jome masjididir. Masjidning nomlanishi uning joylashgan o‘rniga bog‘liq, ya’ni masjid Toymas mahallasida qad rostlagan. Biroz qarovsiz holda qolgan masjid istiqlol yillarda Solixon Orifxo‘jayev tomonidan qayta ta’mirlandi.

Chust tuman Varzik qishlog‘idagi yana bir masjid Oxunbobo jome masjidi bo‘lib, u 1860-yilda qurilgan. Masjidning bunday nomlanishi masjid yonida qabri joylashgan Fazliddinxon nomi bilan bog‘liq. U inson xalq orasida Oxundbobo, ya’ni “oxund” forsiycha “donish” ma’nosini anglatib, donishmand bobo deya nom chiqarganlar.

1886-yilda Xujumbuva tomonidan qurilgan masjid Chustning Karnon qishlog‘idadir. U Yassaviya tariqatining mashhur kishilaridan Oyxonto‘ra nomi bilan ataladi. U zot Karnonda yashab o‘tganlar.²

Qosimshayx jome masjidi 1800-yilda xalq hashari bilan barpo qilingan. Masjidning nomlanishi olim, fozil Qosimshayxga aloqador. Bugungi kunda masjidning joylashishi u kishining qabrlari joylashgan maqbara yonida. Shuning uchun ham masjid aynan Qosimshayx nomi bilan nomlangan.

Kattabog‘ jome masjidi Chust tumanining Sadacha mahallasida joylashgan. Masjid Alixon boy tomonidan qurilgan bog‘ o‘rnida joylashganligi uchun ham Kattabog‘ nomi atalgan. Mustaqillik yillarida masjid qaytdan o‘z maqomini tiklab, bugungi kunda ko‘plab musulmonlar uchun xizmat qilmoqda.³

Chust tumanida faoliyat yuritayotgan masjidlardan yana biri Imomqulboy jome masjididir. Sho‘rolar zamonida qarovsiz holda bo‘lgan masjid mustaqillik yillarida qayta ta’mirlandi. Masjidni xalq Imomqulboy nomi bilan atagan. Imomqulboy asli Popning Kurnos qishlog‘ida yashagan ilmlı kishi bo‘lgan. Bugungi kunda masjid hovlisida gulxonalar tashkillashtirilib, ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda Chust tumanida ko‘plab masjidlar musulmonlar uchun birdek faoliyat yuritmoqda. Ularning barchasida ibodat qilish uchun deyarli hamma sharoitlar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Islom nuri jurnal.-Toshkent: 2015.
2. Chust haqiqati gazetasi.- Chust:2013.-4 b.
3. <https://masjid.uz>

² Chust haqiqati gazetasi.- Chust:2013.-4 b.

³ <https://masjid.uz>